

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ		
Akhmedova M.B., Aliyeva G.H.	Gender asymmetry in language: cultural and linguistic reflections in uzbek, russian, and english	4
Ahmadova U.Sh.	Perifrazalar olamni idrok etish usuli sifatida	7
Jabborova Z.M.	Zamonaviy publisistik janrlarda mediadiskurs tushunchasi	13
Maqsudova M.U.	The main role of stress in compound words in english and uzbek	16
Mavlonova U.Kh.	Linguopragmatic conditioning of the politeness category in the works of ulugbek hamdam and zadie smith	20
Narzullayeva F.O., Tuymuradova R.R.	Somatic phraseological units in english and uzbek proverbs	25
Namozova K.B.	Ingliz madaniyatida to'y marosimlari bilan bog'liq milliy udumlarning o'ziga xoslighi	29
Maxmudova K.S.	The role of pragmatics in facilitating the understanding of literary texts	35
Ataboyev N.B., Abdullayeva N.A.	Translation of religious prayers in english and uzbek languages and their corpus analysis	40
Axmedova G.A.	Main features of pragmatics in language and linguistics	50
Mirzatillayeva Z.R., Aliyeva N.X.	Kognitiv tilshunoslik va uning fanlararo bilim tizimida rivojlanishi	54
Sharapadinova D.S., Eshtuhtarova B.B.	Linguocultural features of phraseological units expressing emotions	59
Anvarova Sh.V.	Lexical - thematic field of ornithonyms in the languages	63
Baxtiyorova M.B.	Atoqli otlarning lingvomadaniy tahlili va ularning funksional xususiyatlari	68
Maxmudova K.S.	The role of pragmatics in facilitating the understanding of literary texts	72
Nuritdinova N.N.	Fransuzcha burun tovushli so'zlarning o'zbekcha imlosi	77

Qutbiddinova N.D.	Somatic phraseologisms in english and uzbek languages	82
Sheraliyeva Sh.I.	Ingliz, fransuz va o‘zbek tillarida avtomobil terminlarining qiyosiy tahlili	86
Vaxidova F.S., Urunova I.N.	Hunarmandchilikka oid terminlarning leksik tizimda tutgan o‘rni	91
Yo‘ldosheva M.B.	Psixolingvistikaning obyekti, predmeti va ta’riflari	95
Ахмедова Ф.И.	Лингвистическая идентификация через неологизмы: как язык помогает создавать новую социальную идентичность	100
Кодирова Ф.Ю.	Основные вопросы субстантивных словосочетаний	105
Abduraxmonov X.A.	Ingliz tilidagi mavhum otlarni o‘zbek tiliga tarjima qilishda uslubiy muammolar	109
Barotova S.U.	The use of proverbs for increasing speech effectiveness in english	113
Narzullayeva F.O., Xikmatova M.U.	Pragmatic features of somatic expressions in english and uzbek languages	118
Norova M.F.	Eskirgan so‘z va iboralar	124
Olimova Sh.S., Davlatova M.H.	Developing the ability to use modal units in speech activity	128
Akramov I.I.	The linguistic representation of worldviews in western and eastern (turkic) aphorisms	132
Saidov X.Sh., Najmiyev M.M.	Nutqiy tejamkorlikning tilshunoslikdagi o'rni	136
Vaxidova F.S., Faxriyeva D.O.	Ziyorat turizmi lingvistik birliklarning pragmatik funksiyalari	140
Ollomurodov A.O.	Kinodiskurs qayta kodlash vositasi sifatida	144
Qobilova N.S.	Tejamkorlik tamoyilining til sathlarida o‘rganilishi	148
Saidova M.U.	Exploring lexical and grammatical cohesion in O.Henry’s ‘Two thanksgiving day gentlemen’	158

INGLIZ MADANIYATIDA TO'Y MAROSIMLARI BILAN BOG'LIQ MILLIY
UDUMLARNING O'ZIGA XOSLIGI

Namozova Kamola Bobir qizi,

*Buxoro davlat universiteti Ingliz tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi
k.b.namozova@buxdu.uz*

Annotatsiya. Maqolada to'y an'alarini lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganish madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam berishi, til o'rganuvchini nazariy va amaliy materiallar bilan ta'minlashi, shuningdek, bu ikki ona tilida so'zlashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy va boshqa o'zaro munosabatlarning yanada yaqinlashishiga va rivojlanishiga hissa qo'shishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: marosim, leksik birlik, folklor, sarpo, urf-odat, tantana, madaniyat, lingvomadaniyatshunoslik.

THE UNIQUENESS OF NATIONAL CUSTOMS RELATED TO WEDDING CEREMONIES
IN ENGLISH CULTURE

Abstract. The article analyzes how the study of wedding traditions from a linguo-culturological perspective helps to develop intercultural dialogue, provides the language learner with theoretical and practical materials, and also contributes to the further rapprochement and development of political, social and other relations between these two native-speaking countries.

Keywords: ceremony, lexical unity, folklore, sarpo, tradition, celebration, culture, linguo-culturological studies.

УНИКАЛЬНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ОБЫЧАЕВ, СВЯЗАННЫХ СО СВАДЕБНЫМИ
ЦЕРЕМОНИЯМИ В АНГЛИЙСКОЙ КУЛЬТУРЕ

Аннотация. В статье анализируется, как изучение свадебных традиций с лингвокультурологической точки зрения помогает развивать межкультурный диалог, обеспечивает изучающего язык теоретическим и практическим материалом, а также способствует дальнейшему сближению и развитию политических, социальных и иных отношений между этими двумя странами-носителями языка.

Ключевые слова: церемония, лексическое единство, фольклор, сарпо, традиция, праздник, культура, лингвокультурологические исследования.

Kirish. To'y marosimi har bir til va madaniyatga tegishli oilaviy an'ana bo'lib, u juda ko'p madaniy va ma'naviy marosimlarni hamda urf-odatlarini o'z ichiga oladi. Bu kabi maishiy jarayonlar XX-asrning 60-yillariga qadar asosan madaniyatshunoslik fani tomonidan o'rganilinib kelinar edi. Chunki to'y marosimi aslida o'zining ko'ngil ochar belgilariga ko'ra ham madaniy tadbir hisoblanadi. Shuningdek, to'y ko'pchilikning, butun boshli bir mahallaning, jamiyatning faoliyati bilan amalga oshadigan ijtimoiy hodisadir. Lingvokulturologiya, ya'ni tilshunoslikning yangi yo'nalishi paydo bo'lgandan so'ng esa tadqiqotchi olimlar bunday madaniy masalalarni lingvomadaniyatshunoslik fani asosida tadqiq eta boshlashdi.

Umuman, to'y (Wedding) marosimi turli davrlarda turlicha ta'riflangan. Y.M. Sokolovning fikricha, "To'y - bu oilaga yangi a'zo qo'shish va o'z safini davom ettirish harakatidir"[12.157]. Yoki, M. Alaviyaning fikricha, "To'y - ikki yosh birga yashashga, bir-birini abadiy sevishga va hurmat qilishga qaror qilgan kun"[1.153]. To'y konseptiga lingvistik jihatdan yondashadigan bo'lsak, olimlar uning ijtimoiy ahamiyatini sof madaniy, lingvistik, psixologik, va o'z o'rnida ijtimoiy hodisa sifatida ta'riflaydilar. Birinchidan, to'y jamiyatning eng muhim ijobiy qadriyatlarining og'zaki va og'zaki bo'lmagan timsolidir, ikkinchidan, to'y marosimining o'zi muhim lingvomadaniy tushunchani shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Ingliz to'y marosim-udumlarining tarixini o'rganishda ularning kelib chiqishi, mazmun-mohiyatini aniqlash uchun albatta tarixiy manbalardagi ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ingliz oilasining asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan bittasi bu to'ylardagi an'anaviy marosimlarga qattiq rioya qilishdir.

Dastlab, to'y so'zining, aniqrog'i, to'y konseptining nufuzli adabiyotlardagi sharhi bilan tanishish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz. Ingliz lingvokulturologik lug'atida "to'y" konsepti (tushunchasi)

quyidagi etimologik ma'nolarga ega: "Wedding" fransuzcha so'z bo'lib, uning asl shakli "weddian" tarzida bo'lgan, keyinchalik "-ing" qo'shilishi shakllangan[7.605-759]. (SH. Rahmatullaevning etimologik lug'atida esa to'y so'zi qadimgi turkiy so'z hisoblanib, "to'q" boshlang'ich shakliga ega bo'lib, keyinchalik "to'y" degan ma'noni anglatuvchi assimilyasiya tufayli "to'y"ga aylangan. Manbada "ochlikni qondirish" va "bo'sh joy egallash" degan ma'nolarni anglatishi haqida ham gap boradi.[11.130-200]).

Merriam-Webster ingliz izohli lug'atiga ko'ra, "to'y" – Wedding quyidagi ma'nolarga ega: 1) turmush qurish marosimi, odatda, tantanali nishonlanishlarga ulanib ketuvchi tadbir; 2) yaqin munosabatlar o'rnatishga qaratilgan hatti-harakat yoki jarayon. Yana bir qator ingliz to'y marosimlari bilan bog'liq leksemalar ham mavjud bo'lib ular: **Best man/eng yaqin do'st** - to'y kuni kuyovga yordam beradigan yaqin erkak qarindoshi yoki do'sti bo'lishi mumkin. Yaqin do'st uzukni xavfsiz saqlaydi, boshlovchilarni boshqaradi, to'yda kuyovning guvohi bo'ladi va nutq so'zlaydi, **Flower girl /gul ko'targan qiz** - yo'lak bo'ylab yurib, kelinning oldiga gul barglarini sochadi, **Father of the bride/kelinning otasi** - kelinni ramziy ravishda **"gives away"/"uzatadigan"** kishi. Agar uning otasi vafot etgan bo'lsa yoki boshqa sabablarga ko'ra mavjud bo'lmasa, kelinni boshqa erkak qarindoshi, ko'pincha amakisi yoki ukasi kuyov oldiga olib keladi. Jumladan, D.D.Manukyan, Y.A.Sorokin, D.A.Gilfanova kabi olimlar to'y marosimiga oid izlanishlar olib borib, ularning madaniy va lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilishgan va ularga ko'ra, o'zbek xalqining nikoh to'yi tizimida ham shunga o'xshash to'y leksemalar mavjud bo'lib, **sovchilik, unashtirish, uy ko'rar (qiz ko'rar), kelin/kuyovni surishtirish** kabilar shulardandir. Ushbu paremlar ingliz va o'zbek tillarida birdek mavjud ammo lingvokulturologik jihatdan farqlidir.

Ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlarda, ayniqsa **Angliya, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va Avstraliya** kabi mamlakatlarda to'y marosimlari turlicha bo'lib, tarix, din va madaniyatga qarab shakllanadi. Quyida ushbu hududlardagi to'y marosimlari haqida tahlil va mulohazalar keltiramiz. Ingliz to'ylarining an'anaviy elementlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Diniy va fuqarolik marosimlari: Ko'pgina an'anaviy ingliz to'ylari xristian urf-odatlariga, jumladan, ruhoni tomonidan o'tkaziladigan cherkov marosimiga asoslanadi. Diniy bo'lmagan joylarda o'tkaziladigan fuqarolik marosimlari ommabop bo'lib, dunyoviy urf odatlarni aks ettiradi.

2. Nikoh qasami: Eng muhim daqiqalardan biri bu va'dalar almashishdir. Xristian to'ylarida ko'pincha umumiy ibodatlar kitobida mavjud bo'lgan qasamlar qo'llaniladi (masalan, "bu kundan boshlab ega bo'lish va saqlash"). Ba'zida er-xotinlar alohida qasam yozadilar, ayniqsa zamonaviy yoki diniy bo'lmagan to'ylarda.

3. Marosimning o'ziga xos xususiyatlari: Asosiy marosimlarga to'y marshi, uzuk almashish va nikohni e'lon qilish kiradi. Ba'zi to'ylarda diniy duolar o'qish, madhiya yoki madaniy an'analar mavjud.

4. Nikohiga qabul qilish odatlari: Marosimdan keyingi bayramlar ko'pincha ovqatlanish, nutqlar yoki tostlar va raqslarni o'z ichiga oladi. To'y tortini kesish, er-xotinning birinchi raqsi va guldastani tashlash an'anasi kabilar ham shular jumlasidandir.

Britaniya to'ylari an'analar, nafislik va zamonaviy shaxsiylashtirish uyg'unligi bilan mashhur. Quyida biz Buyuk Britaniyadagi to'ylarda keng tarqalgan liboslar, joylar va marosimlarning asosiy elementlarini batafsil ko'rib chiqamiz. Xususan, ushbu o'ziga xos urf-odatlardan eng mashhurlari bu qasam va nikoh uzuklari ramziy almashinuvidir. Qasamlar almashish va uzuklarni taqish Buyuk Britaniyadagi to'y marosimlarining ikkita asosiy qismidir. Ushbu an'analar tarix, ramziylik va madaniy ma'noga ega.

Qasamlar almashinuvi(Exchange of vows) to'y marosimining yuragi bo'lib, u yerda er-xotin o'zlarining sevgilarini, nikohga bo'lgan sadoqatini va niyatlarini oshkora e'lon qiladilar va bir birlariga allaqachon an'anaga aylanib ulgurgan va'dalarni berishadi:

An'anaviy va'dalar - nasroniy marosimlarida, ayniqsa Angliya cherkovida ildiz otgan va ko'pincha umumiy ibodat kitobidagi tilga amal qiladi va ularga quyidagilar kiradi:

- *"Men, [Ism], seni, [Ism], mening erim / xotinim bo'lish uchun, qayg'u va quvonchda, boylikda va qashshoqlikda, kasallikda va sog'lig'imda bo'lish va saqlash uchun, Xudoning muqaddas farmoniga ko'ra, o'lim bizni ajratmaguncha, sevis va qadrlashga senga va'da beraman"*. Bu qasamlar nikohning doimiyligi va muqaddasligiga urg'u beradi.

Nikoh uzuklarining ramzi. Uzuklar almashinuvi qasamyoddan so'ng amalga oshiriladigan yana bir eng qadimgi to'y an'alaridan bo'lib, abadiy sevgi va sadoqatni anglatadi. Tarixiy ildizlarga nazar soladigan bo'lsak, nikoh ramzi sifatida uzuklar taqish qadimgi Misrda paydo bo'lgan, u yerda ular abadiy hayot va sevgini ifodalagan. Ya'ni boshi ham, oxiri ham bo'lmagan halqaning dumaloq shakli abadiylikni anglatgan. Ushbu an'ana ilk nasroniylar tomonidan qabul qilingan va Evropa to'ylarining asosiy elementiga aylandi, shu jumladan Buyuk Britaniyaning ham. Buyuk Britaniyadagi marosimda ruhoni ko'pincha uzuklarni almashishdan oldin duo qiladi, er-xotinning nikohida ilohiy yo'l-yo'riq so'raydi. Kuyov uzukni kelinning chap qo'lining to'rtinchi barmog'iga taqadi. Tarixiy jihatdan, "sevgi tomiri" to'g'ridan-to'g'ri yurak bilan

bog'langan chap qo'ning halqa barmog'ida joylashgan deb ishonishgan. Shundan so'ng er-xotinlar odatda quyidagi iboralarni aytadilar:

- *"Bu uzuk bilan men sizga toj kiydiraman, bor vujudim bilan sizni hurmat qilaman va jamiki dunyo ne'matlarini siz bilan baham ko'raman."*

Ikkala yosh ham uzuklarni taqadilar, bu zamonaviy munosabatlardagi tenglikni aks ettiradi. Uzuklar ko'pincha olmos yoki boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan va muhim sanalar, bosh harflar yoki iboralar bilan o'yilgan bo'lishi yoki oilaning davomiyligini anglatuvchi uzuklarni avloddan-avlodga o'tkazish mumkin. Ba'zi madaniyatlar boylik va farovonlik ramzi sifatida qo'shimcha uzuk yoki zargarlik buyumlarini almashtiradilar. Buyuk Britaniyada nikoh uzuklarini chap qo'lda taqish odatiy hol bo'lsa-da, ba'zi madaniyatlar ularni o'ng qo'lda taqishadi.

Muhokama va adabiyotlar tahlili. Mutaxassislarining to'y an'anasini lingukulturologik hodisa sifatida tahlil qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarida "to'y" konsepti kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganib, uni madaniy jihatdan belgilangan tushuncha sifatida ko'rib chiqishgan. Masalan, tilshunos D. Yanning mazkur masalaga bag'ishlangan monografik tadqiqotida "To'y" konseptini qiyosiy tahlil qilib, rus va xitoy lingvokulturologiyasida ushbu tushunchaning umumiy va o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. U to'y odatlarining tarixiy evolyusiyasini va unga hamroh bo'lgan marosimiy aloqani o'rganadi, xitoy va rus to'y muloqotidagi og'zaki va og'zaki bo'lmagan elementlarning nisbatini aniqladi va xitoy hamda rus to'y muloqotining asosiy qadriyatlarini ta'kidlaydi. Rossiyalik olim A.R.Gabbasovning dunyoning rus va boshqird lingvistik tasvirida aks etgan "To'y" tushunchasini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan dissertatsiyasida lingvokulturologiyada to'y muloqotini tashkil etuvchi nutq janrlari tahlil qilindi. Unda rus va boshqird tillarida tushunchaning o'xshash va noo'xshash tomonlari ko'rib chiqildi[2.173].

Xitoy va rus tillari asosida to'yning yana bir qiyosiy tadqiqoti Go Pintin tomonidan amalga oshirilgan, unda olim to'y marosimlarini xitoy va rus maqollari asosida taqqoslaydi. U to'y konseptining kognitiv-pragmatik jihatini lakun deb hisoblaydi. S.M.Guziyekova to'y marosimini rus va adige tillari materiallarida tadqiq qilgan. U "To'y" ning universal va o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berdi va to'y odatlarining marosim matnlarining taklif funksiyalarini aniqladi[3.207].

"To'y" konseptini qiyosiy o'rganish va uning olamning lingvistik tasvirida amalga oshirilishiga bag'ishlangan E.R.Pereslegina, N.V.Nomospasskaya, M.Nikolichlarning ilmiy qarashlarida ham mumkin qadar aks etgan[4]. Ayniqsa, M.Savalmeh tomonidan juda qiziqarli sotsiolingvistik tadqiqot olib borilgan. U ikki xil din vakillarining to'y taklifnomalarining nutqiy o'ziga xosliklarini o'rganib chiqqan.

Ko'rinadiki, ilmiy tahlillarda to'y marosimi alohida lingvokulturologik konsept bo'lish bilan birga, u har bir xalqning milliy etnosi hamdir. Demak, ushbu ilmiy haqiqatlarga asoslangan holda to'y mavzusi fanning ko'pgina sohalar uchun ham tadqiqot ob'ekti bo'la oladi. Biz bu mavzuga lingvistik nuqtai nazardan yondashishni ma'qul topdik.

Nufuzli adabiyotlardagi to'y bilan bog'liq izohlar shundan dalolat beradiki, demak, to'y baxt va saodatga erishish timsoli. Muhimi, uni bayramdek kutub olmoq zarur. Bundan tashqari, to'yda barcha qavm va qarindoshlar yig'ilishadi, ular o'zaro diydorlashadi. Eng muhimi, to'y insonlarni bir-birlariga yaqinlashtiradi. To'y alohida milliy va madaniy marosim bo'lishi bilan birga, u ma'lum bir millatning etnosi hamdir. Demak, uni alohida konsept sifatida o'rganish fan uchun foydadan holi emas. U o'z ma'no qobig'ida buyuk bir millatni shakllantiradi va o'z o'rnida ulg'aytiradi, kamolatga etaklaydi. SHunday ekan, ishimizning ushbu faslida ingliz olamidagi to'y (nikoh to'yi)lar misolida millatning o'ziga xos to'y marosimini va uning urf-odatlarini ko'rib chiqishga harakat qilamiz.

Ingliz tili madaniyatida XV asrdan XIX asrgacha nikohlar ota-onalar yoki ularning vasiylari tomonidan tashkil etilgan. Odatda, kelin va kuyov nikohdan oldin bir-birlarini tanimaganlar. Inglizlardagi bu jihat o'zbeklarning nikoh to'yi marosimidagi ba'zi noodatiy qoidalarni esga solsa ajablanmang. Inglizlarda ota-onalar erta unashtirish marosimini farzand (bo'lg'usi kelin-kuyovlarni) uch yoshdan etti yoshgacha bo'lgan davrida amalga oshirishgan (o'zbeklarda esa beshikdayoq). Bolalar, ya'ni bo'lg'usi kelin-kuyovlar (ota va onalarining hamkorligida) faqat vaqti-vaqti bilan dasturxon atrofida yoki bayram tantanalarida uchrashganlar. Bunday nikohlanish o'zbeklarda ham, aniqrog'i, turkiylarda qadimdan mavjud. Biroq, bugungi kunda har ikkala xalq madaniyatida ham bunday erta nikohlanish odatiga barham berilgan. Bu udum o'zbeklarda faqat hazil tariqasida, unda ham nari borsa og'zaki ko'rinishda (amalda emas) aytib qo'yiladi, xolos.

Biroq inglizlar bunday majoziy va shartli nikohga jiddiy qarashgan, aniqrog'i, bu "nikoh" qonun asosida rasmiylashtirilgan, o'zbeklarda esa har doim ham bunday bo'lgan emas. Ingliz (bu burungi asrlardagi gap, biroq manbalarda o'z tasdig'ini topgan) sudi bunday nikohni bolalar etti yoshga to'lgandagina amalga oshirishi

mumkin bo'lgan. SHundan keyingina bolalar bir-birini ramziy ma'noda er-xotin deb chaqirishsa, bolalarcha quchoqlashishsa, sovg'a-salom berishsa, bu qonuniy hisoblangan.

Keyingi davrlarga kelib, Kromvel davridagi puritanlar tomonidan qabul qilingan 1653 yildagi Fuqarolik nikohi to'g'risidagi qonun yuzaga keladi. Bunda cherkov va sud fuqarolik marosimini qonuniy o'tkazilishni talab qiladi. Ushbu qonunga ko'ra, kelin yoki kuyov 21 yoshda bo'lishligi talab qilingan. Agar tomonlardan biri yigirma bir yoshga to'lmagan bo'lsa, unda ota-onaning roziligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi kerak bo'lgan.

Xulosa. Xullas, nikoh to'yi marosimi ingliz madaniyatida ham ikki yoshning yangi mustaqil hayotga qadam qo'yishi bilan bog'liq va ko'pdan beri kutilgan baxt oqshomidir. Shuningdek, to'yda to'plangan barcha mehmonlar uchun ham bir umr yodda qoluvchi kun ekanligi bilan boshqa milliy an'analardan ajralib turadi.

Til nafaqat madaniy merosni avloddan-avlodga o'tkazadi, balki u xalqning mentaliteti, madaniyati, dunyoqarashiga ta'sir etuvchi vosita hamdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, to'y an'alarini lingvokulturologik nuqtai nazardan o'rganish madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi, til o'rganuvchini nazariy va amaliy materiallar bilan ta'minlaydi, shuningdek, bu ikki ona tilida so'zlashuvchi mamlakatlar o'rtasidagi siyosiy, ijtimoiy va boshqa o'zaro munosabatlarning yanada yaqinlashishiga va rivojlanishiga hissa qo'shadi. To'y an'alariga qiyosiy yondashish, eng avvalo, ilmiy, madaniy va til materiallari asosini yaratish orqali urf-odatlarining boshqa turlarini kelgusida o'rganish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Alaviya M. (1974) *O'zbek xalq marosim qo'shiqlari* [Traditional songs of the Uzbek people] Tashkent, Fan, p 153.
2. Gabbasova, A.R. *Reprezentatsiya konsepta "Svadba" v russkoy i bashkirskoy yazikovoy kartine mira* [Representation of the concept "Wedding" in the Russian and Bashkir linguistic pictures of the world]. Extended Abstract of Candidate Dissertation Ufa, IO NB RB Publ., 2013, p 173.
3. Guziyekova, S.M. *Kognitivno-pragmaticheskiy aspect lakunarnosti konsepta "Svadba"* [Cognitive-pragmatic aspect of lakunability of the concept "Wedding"] Extended Abstract of Candidate Dissertation Krasnodar, Universervis Publ., 2011, p207.
4. Nomospasskaya, N.V., Nikolich M. *Konsept svadba v russkom i serbskom yazikah* [Koncept wedding in the Russian and Serbian languages], Vestnik RUDN [RUPF Bulletin] no.2, 2012, pp. 31-37. (in Russian)
5. Jo'raev M., Saidova R. *Buxoro afsonalari*. – T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 2002. – 126 b.
6. Jo'raev M., Xudoyqulova L. *Marosimnoma. O'zbek xalqining urf-odat va marosimlari haqida qisqacha ma'lumotnoma*. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 48 b.
7. Klein E. (1971) *A comprehensive etymological dictionary of the English Language:1000 AE* Netherlands, Amsterdam, Elsevier Science, 605- 759 pp.
8. Namozova K.B. "Uzbek wedding ceremonies" *European Scholar Journal (ESJ)*. Volume: 2 No.4, April 2021, ISSN- 2660-5562. 507-509p
9. Namozova K.B. "Wedding ceremony phrases of and their importance in improving communicative skills in foreign language" *Central Asian journal of literature, philosophy and culture*. Volume.02 Issue: 05 | May 2021 136-142p
10. Namozova K.B. "Classification of Wedding ceremonies in Uzbek culture" *Web of scientist: international scientific research journal*. Volume: 2, Issue 11, November 2021, ISSN:2776-0979 211-218p
11. Rahmatullayev Sh. (2009) *O'zbek tilining etimologik lug'ati* [Etymological Dictionary of the Uzbek language], Tashkent, Universitet ,V. 2, pp 130-200
12. Соколов Ю.М. (1938). *Русский фольклор*. Моссow, Учебник, 157 с.